

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Pedagogika” fakulteti**

**“San’at” kafedrası**

**КУРС ИШИ**

**Mavzu: O'zbekiston me'morchiligi (Samarqand  
shaxridagi tarixiy obidalar haqida  
umumiy ma'lumot )**

**Bajardi:**

2 “A” guruh talabasi: **Axmatjonova Sarvinoz**

**Ilmiy rahbar:**

“San’at” kafedrası o'qituvchisi: **Avliyoqulova N.M.**

**Kafedra mudiri:**

p.f.n dotsent: **Madrimov B.X.**

**Buxoro-2014 yil**

# **O'zbekiston me'morchiligida (Samarqand shaxridagi tarixiy obidalar haqida umumiy ma'lumot)**

## **Reja:**

### **I. Kirish**

O'zbekiston me'morchiligida betakror tarixiy yodgorliklar.

### **II. Asosiy qism**

2.1. Samarqand afsonaviy shahar

2.2. Imom al Buxoriy yodgorlik majmuasi

2.3. Amir Temur maqbarasi

2.4. Bibixonim Jo'me masjidi

### **III. Xulosa**

### **IV. Ilova**

### **V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

## **I. Kirish**

### **O'zbekiston me'morchiligida betakror tarixiy yodgorliklar.**

«Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu — tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ulib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi».

**Islom Karimov.**

Me'morlik — insonning har kungi hayotidan ajralmas san'atdir. Me'morlik ham san'atning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy-ma'naviy ettiradi, xalqning turmush tarzi, estetik shakllarda namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at tarixiy voqealarning solnomasi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston zamini me'moriy obidalarga boy o'lka. Bu zamonlardan boshlab me'morlik san'ati rivojlanib kelgan. Dastlab odamlar g'orlarda yashash bilan birga yer ustiga ham turarjoylar qura boshlaganlar. Loy va turli shakldagi xom g'ishtdan foydalanib uylar qurishgan, bino devorlari, pollarni suvashgan va rang berib xonalarni bezashgan. Neolit (mil. av. 6—4 minginchi yillar) davri so'ngiga kelib O'zbekiston yerlarida qo'rg'on tepalar qurilishi zaminida shahar va shahar-davlatlari rivojlanib bordi. Shu shahar-davlatlarda me'morlik majmualari yaratildi.

O'zbekiston me'morligining antik va ilk feodalizm davrlari ham me'moriy boy bo'lgan. Bu davrda yangi me'moriy g'oyalar paydo bo'ldi, me'morlik majmualari, mavzuli rassomlik kompozitsiyalari, mahobatli haykaltaroshlik asarlari yaratildi.

Feodallarning qasr-qo'rg'onlari, boy va yangilandi. Bu davr me'morligining o'ziga xos tomonlari qo'rg'on-qasrlar — ko'shklar qurilishida sezilarli bo'ldi. Bu qo'rg'on-qasrlar avvalgi badiiy-madaniy markazlardan birmuncha chekkada bo'lib, asosan, dehqon-feodallarning turarjoyi sifatida paydo bo'ldi. Bu qo'rg'onlar mustahkam devorlar bilan o'ralgan. Shu qo'rg'on-qasrlar atrofida keyinchalik

turarjoylar, bozorlar paydo bo'la borgan. Vaqt o'tishi bilan ana shu yerlar ham qalin devorlar bilan aylantirib o'rab olina boshlangan.

O'zbekiston me'morlik san'atining yangi bosqichi rivojlangan feodalizm davriga to'g'ri keladi. Shu davrda O'zbekiston jahonga ajoyib olimlarni berdi. Me'morlikda yangi tipdagi binolar, ijodiy g'oyalar yuzaga keldi. Shahar hayoti rabotga ko'chdi. Shu yerda gavjum bozorlar paydo bo'ldi. Savdo qatorlari yaqinida esa hunarmandlar jamoalari shakllana bordi. Shaharda va undan tashqarida jamoat va turarjoylar ko'plab qurildi. Bu qurilishlarda asta islom dini bilan bog'liq me'morlik shahar qiyofasini belgilashda muhim o'rin egallab, dinlar bilan bog'liq diniy binolar masjid tiplari yuzaga kelib, juma masjidi hamda shahardan chekkada namozgohlar barpo etilib, ichida qibla tomonda — mehrob yonida minbar qurilgan. Uzun minora ishlanishi ham shu davr mahsulidir. O'quv dargohlari — madrasalar qurilishi ham jonlana boshladi.

Xonaqohlar alohida masjid-madrasalarda, ularning yaqinida qurilgan. Shunday xonaqohlar Samarqand, Buxoroda ko'plab uchraydi. Savdo chorrahalarida Chorsu savdo gumbazlari, shahar darbozalari oldida karvonsaroylar hamda shahar va undan tashqarida maqbaralar qurilishi shu davr me'morligining o'ziga xos yangi yo'nalishlari mahsuli edi. Ayniqsa, maqbaralar qurilishida bezak san'ati yutuqlari o'z ifodasini topdi. Qurilishda xom g'isht, paxsadan tashqari pishiq g'isht va alebastr qorishmalaridan foydalanish ham muhim bo'ldi. Uchli toqilar ham me'morlik san'ati o'zgarishlarini belgiladi. Minora qurilishi ham odat tusiga kirib kela boshladi.

Temur va Temuriylar davrida me'morlik san'ati nihoyatda rivojlandi. Bu davrda me'morlikda birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik majmualari muhim o'rinni egallaydi. Me'morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O'rta Osiyo me'morligida awal ham bo'lgan, lekin XV asrga kelib bino ichki va, ayniqsa, tashqi pardozida bu uslub alohida o'rinni egallaydi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli koshinlar XVI asr oxiridan tarqaldi. Temur nafaqat o'z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o'z tasarrufidagi

yerlarda ham hashamatli bipolar qurdirdi. Temur va Temuriylar davri me'moriigini Shohizinda me'morliktasavvur etib bo'lmaydi.

Afsonaviy Afrosiyob i bu majmua XI — XII asrlarda mavjud maqbaralar o'rniga i bu yer musulmonlarga jadar ham muqaddas sajdagoh joyi bo'lgan. Bu yerda avliyo Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, go'yo “u shu yerda tirilib yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha o'sha yerda yashagan “ nomi shu yerdan olingan. Hozirgi Shohizinda i ko'rinishi XIV — XV asrlarning birinchi yarmida shakllangan. U 1434 — 1435-yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan peshtoq bilan boshlanadi. Ulug'bek davrida me'moriy san'atda qator nodir yodgorliklar barpo etildi. Ulug'bek madrasasi, rasadxona shular jumlasidandir. Ulug'bek rasadxonasi uch qavatli bo'lib, ichki qismi rasmlar bilan bezatilgan. Unda tabiat manzaralari keng o'rinni egallagan.

Shayboniylar davrida Buxoro Markaziy Osiyoning yirik biriga aylanadi. Shaharda Temuriylar i binolar qad ko'tardi. Buxorodagi markaziy ansamblardan Katta Kalon Jome' jidi va Mir Arab madrasasi ham shu uslubda barpo etildi. Ulug'bek madrasasi qarshisiga mahobatli Sherdor va uning yoniga Tillakori madrasalarini qurdiradi. XTV asrda Chor-Bakr majmuasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi barpo XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xivaning mashhur yodgorliklari o'zining Lo'rinishiga ega bo'ladi. Darvozalar, karvonsaroylar va madrasalar shahar ko'rki ochiladi. Pahlavon Mahmud maqbarasi, Tosh Hovli kabi dari bugungi kunda bezakdorligi hamda go'zalligi bilan kishilarni hayratga i. Islomxo'ja minorasi shaharning ajoyib me'morchilik yodgorligi hisoblanadi. Xorazm davlati miloddan avvalgi II — I asrlarda esa o'zining gullagan davrini boshidan kechiradi. Tuproqqal'a shu davrning muhim yodgorligidir. Qal'a qalin devor bilan aylantirilib o'rab va atrofidan zovur o'tkazilgan. Asosiy darvozadan shahai keng va to'g'ri yo'l shaharning bosh maydoni va u yerda mavjud bo'lgan va hokim saroyiga olib borgan. Qal'adagi saroy va ibodatxonalar bezakka boy va hashamatli qilib qurilgan bo'lib, uni bezashda rassomlik va haykaltaroshlik san'atidan foydalanilgan.

Rivojlangan feodalizm davrining nodir yodgorligi Somoniylar. Bu maqbara haqli ravishdajahon i hisoblanib, dastlab o'zining sodda va 1 mutanosibligi va me'moriy shakl devorining nihoyatda nafis holda bir-biri bilan uyg'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib (7,20 x 7,20), to'rt tomonida arkli eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga bir oz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtni tmii holda taxlanishi hisobiga badiiylashtirilgan. G'ishtning goh yon, goh burchagi bilan qo'yilishi yuzada yorug'-soya o'yinini oshirib, uni xushmanzarali bo'lishini ta'minlagan. Bu yorug'lik-soya o'yini esa kurash nurining o'zgarishi bilan turlanib boradi va har safar qaytarilmas joziba beradi. Bir oz mungli ko'ringandek bino abad uyqudagilar uchun sokin va mungli sukut saqlayotgandek tuyuladi.

## **II. Asosiy qism**

### **2.1. Samarqand afsonaviy shahar**

Samarqand — afsonaviy shahar, har bir joy, ko‘chalar, havzalari o‘z tarixiga ega. Afrasiyobning shimoliy sharqidagi tepaliklarda Amir Temurning nabirasi Ulug‘bekning osmon jismlari va yulduzlarini o‘rganish bo‘yicha qurgan rasadxonasining bir qismi saqlanib qolgan. Rasadxona binosi 1449-yilda buzib tashlangan, hozirgi kunda tashrif buyuruvchilar rasadxonaning yer osti qisminigina ko‘rishlari mumkin.

Samarqandda tarixiy obidalaridan tashqari ko‘pgina dam olish maskanlari ham mavjud. Taxtaqorachi dovonni yaqinidagi Omonqutan maskanida hozirgacha Samarqand shahri to‘g‘risidagi qiziq-qiziq afsonalarni eshitish mumkin. Bundan tashqari ushbu viloytda neandertallar lageri qoldiqlari topilgan.

Samarqand — jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri. Rim, Afina, Vavilonlarning tengdoshidir. O‘tmishning shoirlari va tarixchilari uni chinakam «Sharq jannatmakon bog‘i», «Yer yuzi», «Sharq olamining bebaho durdonasi», «Jahon mamlakatlarning bezagi», «Sharqning Rim kabi shahri»... va hokazolar kabi go‘zal o‘xshatishlarni bejiz bag‘ishlamagan edilar.

Samarqand vujudga kelgan Zarafshon daryosi vodiysining tabiiy mo‘l-ko‘lligi «Avesto» ning muqaddas she‘rlarida maqtalgan edi. Eramizdan avvalgi 1-ming yillikning o‘rtalarida yunon manbalari Samarqand shahri haqida nomini Marokand shaklida aytib o‘tganlar, o‘rta asrlar davrida qadimiy Samarqandning xarobalari Afrosiyob deb nomlanadigan bo‘ldi.

Samarqand shahri haqida eng birinchi yozma fikr eramizdan avvalgi 329 yilga oid, u paytda Iskandar Zulqarnayn boshchiligidagi yunon-makedon lashkarlari uni ishg‘ol qilgan. Eramizning birinchi asrlarida shahar qudratli Kangyuy davlati hukmronligiga tushib qolgan edi.

Qadimiy Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar bu muazzam shaharning yuragi bo'lmish Registon maydoni va unda qad rostlagan uch madrasaning ko'rki, salobatidan hayratga tushadilar. Uning nafis go'zalligini soatlab tomosha qiladilar, sehrli oqshomlaridan taraladigan sukunat qo'shig'ini tinglaydilar. Registon. Bu nom har bir samarqandlik uchun bag'oyat tanish nom. Registon maydoni qadim-qadimdan boshlab, Samarqandning boshidan kechgan shodlik va qayg'uli kunlarning tirik, tilsiz guvohidir.

Mirzo Ulug'bek zamonasidan buyon bu maydon Samarqand ahli uchun Bosh maydon hisoblanadi. Samarqand hukmdorlarining farmonlari shu yerdan e'lon qilinadi. Yovga qarshi erk jangiga otlangan jasur lashkarlar, aynan, shu maydonda qasamyod qilishib keksalardan duo-fotiha olganlar... Registon maydonida olib borilgan arxeologik qazishmalarning ko'rsatishicha, ibtidoiy jamoa davrida bu yerda ulkan changalzor bo'lib eng qadimgi ovchilar changalzorda har xil yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar.

Qazishmalar paytida Registon maydonining eng pastki qatlamlaridan ibtidoiy odamlarning ov qurollari topilgandir. Antik davrda esa hozirgi Registon maydonidan Afrosiyob shaharchasi tomonga katta ariq o'tkazilgan ekan. VIII-X asrlarda Registon maydoni o'rnida juda ko'plab imoratlar paydo bo'la boshlaydi, chunki, Samarqandni istilo qilgan arablar Afrosiyobdan bir necha minglab mahaliy aholini majburlab ko'chirgan edilar. Aynan shu davrlarda bu yerda xunarmandlarning ustaxonalari, savdo rastalari bunyod etiladi.

XI-XII asrlarda hozirgi Registon maydoni o'rni va atrofidagi mahallalar tashqi mudofaa devori bilan o'ralib "tashqi shahar" nomi bilan atala boshlaydi. 1220 yili Afrosiyob Chingizxon tomonidan vayron qilingach, bu yerda yashashni iloji qolmaydi, tirik qolgan xalq hozirgi eski shahar tomonga, ya'ni, Registon maydoni atrofiga ko'chib o'tadi. Bu yerdan oqib o'tuvchi kanal ancha kengayib sayozlasha boshlaydi. Shundan so'ng, kanal uchun yangi o'zan qazilib jilovlanadi. Kanalning eski o'zanida juda ko'p qum to'planganligi uchun bu joy Registon, ya'ni, "qumloq joy" deb atala boshlandi.



Sohibqiron Amir Temur davrida Registon maydoni o'rnida markaziy bozor joylashgan edi, shuningdek, bu yerda jahongirning xotini Tuman og'a tomonidan barpo qilingan usti yopiq savdo timi-rastalar qurilgan edi. Registon maydonining me'moriy tomondan shakllanishi Mirzo Ulug'bek hukumronligi davridan boshlangan. Samarqandga 40 yil (1409-1449 y.) huqmronlik qilgan ulug' munajjim Mirzo Ulug'bek bu shaharning obodonchiligi borasida hyech narsani ayamadi. Mirzo Ulug'bekning farmoni bilan Tuman og'a timining g'arbiy tomonida hashamatli madrasa qurish boshlanadi.

## **2.2. Imom al Buxoriy yodgorlik majmuasi.**

Qadimgi Samarqandning me'morchilik yodgorliklari bilan tanishgan sayyohlar ko'pincha yana bir muqaddas ziyoratgohga borishni istab qoladilar. Bu ziyoratgoh, ayniqsa musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurgan sayyohlar uchun bag'oyat qadrlidir. Chunki, bu yerda, o'z xizmatlari bilan islom dunyosida mashhur bo'lgan ulug' olim Imom al-Buxoriy abadiy uyquda yotibdilar.

Imom al-Buxoriy dafn etilgan joy Chelak tumanidagi Xartang kishlog'i bo'lib, bu yerda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan qurilgan masjid ham saqlangandir. Bir necha o'n yillardan buyon qarovsiz bo'lib yotgan bu ulug' joy 1974 yildan so'ng obodonlasha boshlagan edi, negaki, o'sha yili Imom al-Buxoriyning tavalludiga 1200 yil to'lishi munosabati bilan dunyodagi musulmon davlatlarining yirik olimlari bu yerga kelish istagini bildirgandilar. Xorijiy mehmonlarga bu xarob joyni ko'rsatishga uyalgan Moskvalik «xo'jayin»lar maqbarani obodonlashtirishga ruxsat berishga majbur bo'ldilar. Shundan so'ng bu tabarruk ziyoratgohda katta obodonchilik ishlari bajarildi.

Hozirda Imom Buxoriyning qabri O'zbekistonga tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgohga aylangandir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1992 yilning aprel oyida Saudiya Arabistonga tashrif buyurganda podshoh Fahd ibn Abdul Aziz al Saud hazrati oliylari kamoli extirom ifodasi sifatida Prezidentimizga Ka'batullohga yopiladigan ka'bapushning katta bir bo'lagini hadya qilgan edi. Prezidentimiz I.Karimov ushbu ka'bapushni lutfan Al-Buxoriy maqbarasi majmuyiga sovg'a qildi. Shu o'rinda, Imom al Buxoriyning xotirasiga bu darajada katta ehtirom ko'rsatilishiga sabab nima ? – degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga javob berish uchun gapni sal oldinroqdan boshlamoq lozimdir.

Alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Al-Mug'ayra ibn Bardazbeh Al-Jufariy Al-Buxoriy hijriy 194 yilning shavvol oyini 13 kunida (810 yil 20 iyul) Buxoro shahrida tavallud topgan. Yoshilgidanoq ilmga ehtiyoji zo'r, zehni o'tkir bo'lgan Al Buxoriy, ayniqsa payg'ambarimiz hadislarini alohida mehr va ixlos bilan o'rgangan. 825 yili Al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad

bilan haj safariga jo'naydi. Haj ibodatini ado etganidan keyin esa olti yil Hijozda qolib hadis ilmi bo'yicha astoydil ta'lim olish uchun Damashq, Qohira, Basra, Kufa va Bag'dod kabi shaharlarda bo'lib mashhur hadisshunos olimlar bilan uchrashadi. Imom al-Buxoriy o'n olti yil davomida olti yuz ming hadisni ajratib, ularni tartibga solib "Al-Jome, As-Sohiyh" nomli ulkan asarni yaratadi. "Sohiyh Al-Buxoriy" nomi bilan mashhur bu asarni islom dini uchun ahamiyati g'oyatda kattadir. Negaki, islom dinining dastlabki asrlarida noaniq, chala va har-xil g'arazli maqsadlarda ataylab to'qilgan soxta hadislar ham xalq orasiga tarqalgan edi. Bu g'arazli va soxta hadislar el orasida tarqalib islom dini va uning Payg'ambarining obro'siga katta ziyon yetkazmoqda, ishonchsizlik tug'dirmoqda edi. Imom al-Buxoriy to'plagan haqiqiy hadislar esa o'zining to'g'riligi va mantiqliligi bilan barchaga manzur bo'ldi. Natijada islom dinining dushmanlari o'z niyatlariga yeta olmadilar. Shu sababli Imom al-Buxoriy to'plagan "Al-Jome As-Sohiyhning obro'si juda oshib ketdi va uni to'plovchisini ham shonu-shuhrati islom olamiga yoyildi. Imom al-Buxoriy xorijiy ellardan qaytgach o'z ona shahri Buxoroda yashay boshladi va ko'plab tolibi ilmlarga ta'lim bera boshladi. Ammo, hasadchilar allomani tinch qo'ymadilar, ular Al-Buxoriyni Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az Zuhayliyga yomonladilar.

Amir Xolid ibn Ahmad Al-Buxoriyga saroyimga kelib bolalarimga ta'lim berasan, deb buyruq qiladi. Al-Buxoriy hokimning xabarchisiga: "Men ilmni xor qilib uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilmga kerak bo'lsa o'zi izlasin" – deb javob beradi. Allomaning bu javobi hokimga yoqmaydi va unga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan so'ng Al-Buxoriy Samarqand tomonga yo'lga chiqib, shahar yaqinidagi Xartang qishlog'iga yetib kelib qarindoshlarinikida bir oz yashaydi va kasallanib 62 yoshida hijriy 256 yili (870 yil 1 sentyabr) vafot etadi. Uni katta izzat-ikrom bilan Xartang qishlog'idagi qabristonga dafn etadilar. Uning qabriga hashamatli maqbara quradilar.

Imom al-Buxoriyning maqbarasini o'z ko'zlari bilan ko'rib ziyorat qilganliklarini XII asrda yashagan tarixchi Samaniy va XIV asrlarda yashagan sayyoh Ibn Battutalar yozib qoldirganlar. Imom al-Buxoriy "Al-jome, As-Sohiyh»

dan tashqari bir necha o'nlab kitoblarning muallifidir. Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi va ko'rsatmasi bilan Xartang qishlog'ida ulkan, hashamatli Imom al-Buxoriy majmuasi bunyod etildi. Bugun u barcha uchun tabarruk ziyoratgohga aylangandir.

Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining umumiy maydoni 6 gektarni tashkil etadi. Bu majmua maqbara, masjid, miyonsaroy va anjumanlar zalidan iborat. Majmuada jami 24 ta eshik, 11 ta gumbaz, hamda, 74 ta ustun mavjud.

Imom Buxoriy yodgorlik majmuasiga kirgandan so'ng muhtasham maqbara ko'zga tashlanadi. Maqbara murabba uslubida qurilgan bo'lib, eni 9 m, bo'yi 9 m, qubbasining ustigacha balandligi 18 metr. Maqbaraning quyi qismi qora tog' jinslaridan ishlangan. Maqbara devorlariga zangori yashil rangli naqshlar, koshinkor bezaklarga alohida e'tibor berilgan. Ular orasida hadislar, oyatlar bitilgan.

Majmuadagi masjid binosiga 3 ta eshik orqali kiriladi. Masjid peshtoqlarida sopoldan ishlangan milliy bezaklar, Qur'on oyatlari mavjud. Masjidning bitta katta va 4 ta kichik gumbazlari mavjud. Bu yerda 1,5 mingga yaqin kishi namoz o'qish imkoniyatiga ega.

### **2.3. Amir Temur maqbarasi**

Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403-yildan boshlangan bo'lib, ushbu maqbarani Sohibqiron bobomiz Amir Temur Samarqandda suyukli nabirasi Muhammad Sultonga atab qurdirgan. Maqbarada Sohibqironning piri Mir Sayyid Baraka va Sayyid Umarning qabri ham bor. Amir Temurning ustozlaridan bo'lgan Mir Sayyid Baraka 1404 – yilda Mozandaronda vafot etgan va Afg'onistonning Andxud shahrida dafn etilgan. Amir Temur vasiyatiga ko'ra jasadi Samarqandga SHohruh Mirzo tomonidan keltirilgan. Buyuk Sohibqiron o'z jasadini uning oyog'i uchiga qo'yishlarini vasiyat qiladi. Bundan tashqari, maqbaraga A. Temurning o'g'illari Umarshayx, Mironshoh va SHohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'bek va boshqalar dafn etilgan.

Amir Temur maqbarasining ichki ko'rinishi to'rtburchak, uning tashqi ko'rinishi esa sakkiz tomonli prizma shaklida. Prizma ustida ko'p qovurg'ali gumbazni ko'tarib turuvchi slindr shakldagi qurilma ishlangan<sup>1</sup>. Ziyoratxona o'rtasidagi hazira sahniga qator qabrtoshlar qo'yilgan. Maqbara binosi va uning oldidagi peshtoqli darvozasi bor hovli saqlangan. Maqbaraning janub va g'arb tomonidagi g'ishtdan ishlangan bezaksiz katta peshtoqli gumbaz qay vaqtda qurilganligi aniq emas.

Maqbara devorlari havorang, zangori va oq sirli koshinlar, geometrik shakldagi naqshlar bilan bezalgan. Maqbara qurilishi Amir temurning nabirasi Mirzo ulug'bek davrida ham davom ettirilgan. Uning davrida qabrlarning turgan joyi o'ymakor marmar panjara bilan o'raglan. Uning buyrug'i bilan 1424 –yili maqbaraning sharq tomonida to'rt qubbali galeriya qurildi. Ushbu galeriyadan maqbaraga kirish mumkin. Maqbara interyerining sosi havorang, devorlariga esa naqshlar berilgan. Maqbaraning tashqi gumbazi qovurg'ali baland doira asos poyasiga o'rnatilgan.

Amir Temur maqbarasining bugungi ko'rinishi XV asrdagi majmuaning

saqlanib qolgan bir qismidir. Bu me'moriy ansambl O'rta Osiyoning noyob me'moriy durdonalari orasida alohida o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillarida ko'plab tarixiy obidalarimiz singari Amir Temur maqbarasi ham qayta ta'mirlandi. O'zining serhasham, mahobatli ko'rinishi qaytadan tiklandi.

## **2.4. Bibixonim Jo'me masjidi**

Samarqandning ko'hna qismida, Amir Temur jome' masjidining kunchiqar tomonida, bundan olti asrlar ilgari barpo qilingan, mo'jazgina, asrlar yukidan beli bukchayib qolgan bir me'moriy obida qad rostlab turibdi. Bu obidaning gumbazi ostida Amir Temurning suyukli xotini, u bilan ko'plab issiq-sovuqlarni birga baham ko'rgan, zukko, tadbirkor, oqila Katta xonim-Saroymulixonim-Bibixonim abadiy uyquda yotibdi. Har xil ofatlar, qarovsizlik va asrlarning zalvorli yukidan uning gumbazi yiqilib tushdi, ammo butunlay yo'q bo'lib ketmadi.

Bibixonim maqbarasi haqidagi ilk tarixiy ma'lumotlarni biz 1404 yili Samarqandga tashrif buyurgan, Kastiliya qiroli Hyenrix III ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklaridan o'qishimiz mumkin. Ispan elchisi bu yodgorlik haqida: – "Dushanba, yigirma to'qqizinchi sentyabr kuni janob (ya'ni, Amir Temur) Samarqand shahriga jo'nadi va shaharga kirish yo'lining ustida joylashgan bir uyga to'xtadi. Bu uyni janob xotini Kan'oning (Bibixonimning onasi) uchun qurdirgandi.

Uning onasi shu uyning ichidagi sag'anaga dafn etilgan. Uy juda hashamatli bo'lib ichi ajoyib bezatilgan. Ularda uylarni juda hashamatli bezatish odati bo'lmasa-da, bu uy hashamatli, u hali bitmagan, har kuni ish bormoqda» – deb yozgan edi. Bu yerda gap Saroymulixonim-Bibixonim madrasasi va unga yondosh qilib Amir Temur tomonidan qaynonasi, ya'ni, Bibixonimning onasi, amir Qozonxonning xotini uchun qurdirgan maqbara haqida borayotgani yirik tarixchilar tomonidan tan olingan. Bibixonim maqbarasi qurilgan davrda juda hashamatli va mahobatli bo'lgan, uning devorlari rang-barang koshinlar, naqshlar hamda Qur'ondan keltirilgan oyatlar bitilgan yozuvlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichki tuzilishi, xuddi Go'ri Amir maqbarasidek ikki, qavatli, pastda sag'ana, tepada esa ziyoratxona bo'lgan. Maqbaraning gumbazi yiqilganidan so'ng unig ichiga qor-yomg'irlar tushib sag'ananing tomi ham yiqilib tushgan.

1941 yili arxeolog Yahyo Fulomov rahbarligidagi olimlar maqbarada qazish ishlarini olib borishib, shu paytgacha no'malum bo'lgan ko'pgina narsalarni aniqladilar. Shu paytgacha, sag'ana o'rtasidagi bo'sh yerning tagida yashirin qabrlar mavjud, degan taxminlar bor edi. Bu yer qazib ko'rilganda, bu yerda hyech



qanday yashirin qabr yo'qligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ekspedisiya a'zolari maqbara XI-XII asrlarga oid madaniy qatlam ustida bunyod qilinganligini aniqladilar.

1941 yilning iyun oyida Ya.G'ulomov boshchiligidagi arxeologlar maqbaradagi qabrlarni ham ochib o'rgandilar. Shuni aytish lozimki, ushbu maqbaraga dafn etilganlar, marmartoshlardan yo'nilgan tosh tobutlarga kumilganlar. Ushbu tosh tobutlar dastlab maqbaraning pastiga, ya'ni, sag'anaga qo'yilgan edi, sag'ananing tomi yiqilib tushganidan so'ng esa tosh tobutlar tokchalar ichiga joylashtirilgandir.

Arxeologlar dastlab shimoliy tokchada turgan tosh tobutni ochishga kirishdilar. Tosh tobutni yopib turgan tosh qopqog' ko'tarib olingach, uning ichida paxta, gazlamalarga aralashib yotgan suyaklar ko'rindi. Mumiyolangan suyaklar shu darajada aralashtirib tashlanganki, oyoq suyaklari bosh suyaklari bilan birga yotardi. Antropolog M.Gerasimovning aniqlashiga ushbu suyaklar 25-30 yoshli ayol kishiga tegishli ekan. Tosh tobutning qopqog'ida hyech qanday yozuvlar bo'lmaganligi uchun malikaning shaxsiyatini aniqlab bo'lmadi. Shundan so'ng olimlar, shimoliy tokchaga qo'yilgan ikkinchi tosh tobutni ochishga kirishdilar. Bu tobutning uzunligi 1 m 90 sm, eni 47-66 sm, balandligi 37sm, bo'lib u ham yaxlit, kulrang marmartoshdan yasalgan edi. Tosh tobutning qopqog'i ochilgach, uning ichida aralash quralash bo'lib yotgan suyaklar, tuproq, paxta va gazlama qoldiqlari ko'rindi.

Tobut ichidagi suyaklar shu darajada ezilib ketgan ediki, uni yoshini aniqlashni iloji bo'lmadi, faqatgina antropolog M.Gerasimov ushbu suyaklar kekxa ayol kishiga tegishli ekanligini aniqladi. Shundan so'ng, maqbaraning sharqiy tokchasida turgan tosh tobutlarni ochishga kirishildi. Bu yerda uchta tosh tobut yonma-yon qo'yilgan bo'lib, ular ham yaxlit marmartoshlarning ichini yo'nib tayyorlangan edi. Sharqiy tokchadagi uchala tosh tobutning ikkalasi bo'm-bo'sh bo'lib, faqat bittasining ichida jasad saqlangan ekan. Bu tobutdagi jasad ham titib tashlanganli uchun anchayin tartibsiz holatda yotar edi. Jasad dafn qilinishidan

oldin mo'miyolangan, jasadnig yonidan bir necha taqinchoq, rayhon barglari va kafanning qoldiqlari topildi.

1941 yilda ushbu tosh tobut ochilayotganda, uning qopqog'i ustida hyech qanday yozuvlar uchratilmadi, ammo, tarixchi S.A. Lapinning yozishicha, u 1889 yili maqbaraga kirganida, ushbu tobutning usida yozuv bitilgan tosh qopqoqni ko'rganligini yozib qoldirgan. Uning yozishicha, qopqoqning ustida, Qur'ondan ko'chirilgan oyat va pastroqda esa: "Majnunning o'limidan so'ng ming yil o'tsa hamki, uning kafanidan hamon ishq dardi taraladi" degan yozuv bo'lgan. 1926 yili rassom I.Mrachkovskiy maqbarada tadqiqot o'tkazganida, bu yozuvli taxta o'g'irlanib, uning o'rniga oddiy, yozuvsiz qopqoq qo'yilganligini yozgan edi. Shu o'rinda, nega tosh tobutlardagi jasadlar titib tashlangan, uni kimlar, qachon qilishgan? – degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga javob topish uchun gapni ilgariroqdan boshlamoq lozimdir. Samarqand me'morchilik yodgorliklarni o'rgangan arxeolog M.Ye.Massonning arxeolog Ya.Fulomovga aytishicha, Bibixonim maqbarasidagi tosh tobutlar dastlab 1871 yili Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinganidan so'ng ochilgan. Ammo, tobutlar qanday maqsadda ochilganligini M.Ye.Masson ham bilmagan. Tosh tobutlar ikkinchi marta 1926 yili bir guruh o'g'rilar tomonidan ochilgan. O'g'rilar tobutlarni titib marhumlarni taqinchoqlarini va boshqa bezaklarini o'g'irlaganlar. Shu tufayli, tosh tobutlar 1941 yili uchinchi marta ochilganida uning ichidagi suyaklar ag'dar-to'ntar bo'lib yotardi. Bibixonim maqbarasidagi tosh tobutlarning qopqoqlarida hyech qanday yozuvlar bo'lmaganligi uchun bu yerga dafn etilgan marhumlarning shaxsiyatlarini aniqlash ancha mushkul bo'ldi.

Olimlar birinchi bo'lib ochilgan tosh tobutdagi malikaning shaxsiyatini aniqlay olmadilar, ammo, uni temuriylar xonadoniga mansub oliy martabali malika bo'lganligini e'tirof etdilar. Shimoliy tokchadagi ikkinchi tosh tobutga dafn etilgan marhumani Bibixonimning onasiga tegishli ekanligi aytiladi. Sharqiy tokchada joylashgan, uchinchi bo'lib ochilgan maqbaradagi eng yirik tosh tobutga dafn etilgan jasadning shaxsiyati haqida ancha bahslar bo'ldi. Shun-ing uchun ko'plab tarixiy manbalar o'rganildi, har xil taxminlar farazlar tahlil qilindi, antropologlar

jasadning yoshini aniqladilar. Skulptor M.Gerasimov marhumaning hujjatli portretini yaratdi. Barcha dalillar, taxminlar va ilmiy xulosalar jamlanib muhokoma etilgach, tadqiqotchilar bu suyaklar Amir Temurning suyukli xotini Katta xonim-Bibixonimniki, degan qarorga keldilar. Shu o'rinda Bibixonim shaxsiyati haqida ham ozgina to'xtalmoq lozimdir.

Tarixchilarning yozishlaricha, Bibixonim, XIV asrning 40yillarida Movorounnahrda xonlik qilgan Chig'atoy xonadoniga mansub amir Qozonxonning qizi bo'lgan. Taxminlarga ko'ra u 1341 yili hozirgi Qashqadaryo vohasidagi Zanjirsaroyda tavallud topgan. Amir Qozonxon davlatda tartib o'rnatish yo'lida har xil qarshiliklarga uchrab 1346 yili bir guruh beklar tomonidan o'ldiriladi. Bu fojia yuz berganida Bibixonim 5-6 yoshlarda edi. U balog'atga yetgach amir Qozog'onning nabirasi Husayn-ga turmushga beradilar.

1370 yili amir Xusayn Xuttalon amiri Kayxusrav tomonidan uldirilgach, Bibixonimga Amir Temur uylanadi. U xonning qizi bo'lganligi tufayli Amir Temurning haramida Katta xonim degan unvonga ega bo'ladi. Bibixonimning go'zalligi, aql-farosati, nozik didi, keng va shafqatli qalbi haqida xalq orasida necha-necha afsonalar saqlanib qolgan.

O'sha davrda yashagan bir shoir Bibixonimning go'zalligi haqida: "Uning go'zalligini so'z bilan anglatish mushkul, chunki ul har qanday go'zal so'zdan-da go'zaldir"-deb yozgan ekan. Bibixonimni aql-farosati, mehribonchiligini Amir Temur yuksak baholar edi, shu sababli, sohibqiron oqila malikaga temuriy shahzodalarning tarbiyasini ishonib topshirgan edi. Bibixonimga tabiat ona bo'lish baxtini bermagan edi, u bor mehr-muhabbatini Mirzo Ulug'bek, Muhammad Sulton, Xalil Sulton kabi suyukli nabiralariga baxsh etdi. Bibixonim o'z sarmoyasidan Samarqandda ulug'vor madrasa bunyod qildi, olimlar shoirlar va me'morlarga g'amxo'rlik qildi.

Arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, uni Xalil Sultonning xotini Shodimulk yashirin ravishda zaharlab o'ldirgan... Hozirgi kunlarda Bibixonim mangu uyquda yotgan maqbara ta'mirlanmoqda, yana o'z asliga qaytmoqda, bu

yerga ziyoratga kelayotganlarning soni kundan kunga oshib bormoqda.

### **III.Xulosa**

Mustaqil Vatanimiz O'zbekiston butun dunyoga o'zining tarixiy me'moriy yodgorliklari, qadimdan ilm – ma'rifat markazlaridan hisoblangan ko'hna shaharlari, buyuk sarkardalar – u, mutafakkir allomalari bilan mashhur bo'lib tanilgan. Zero, necha – necha asrlardan buyon o'z salobatini yo'qotmay, hamon butun dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan betakror me'moriy yodgorliklar, o'rta asrlarda buyuk Amir Temur saltanatining poytaxti bo'lib, qadim zamonlardanoq ilm – ma'rifat rivoj topgan, savdo – sotiq, hunarmandchilik yuksalgan Samarqand, Islom dinining markazi hisoblanmish Buxoroyi – sharif, qariyb 2500 yillik tarixga ega Xiva, Termiz, Islom madaniyati poytaxti bo'lgan 2200 yillik tarixga ega Toshkent kabi jannatmonand shaharlari, A. Temur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi sarkardalar, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al – Xorazmiy, Ahmad al – Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek, Z. M. Bobur singari dunyo tan olgan ilm – ma'rifat daholari yashagan shu aziz tuproq, biz uchun muqaddas va mana shunday buyuk yurtda yashash har birimizning qalbimizda cheksiz faxr – iftixorni uyg'otishi shubhasiz.

Yurtimizda hamon butun dunyo ahlini o'ziga rom etib kelayotgan minglab tarixiy obidalar qad ko'targan bo'lib, ular xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelayotgan boy ma'naviy qadriyatlari, hamda yaratuvchanlik va bunyodkorlik salohiyatini mujassam etgan, ajdodlarimizdan biz kelajak avlodlarga qoldirilgan bebaho va nodir merosdir. Bu inshootlar bizning Vatanimiz tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishi, yurtimiz aholisi, ajdodlarimizning me'morchilikda erishgan yutuqlari, ko'p asrlar oldin ham san'atning nozik qirralarini o'z inshootlarida go'zal va jozibali ko'rsatib bera olgan, qurilishda yillab ter to'kkan mehnatkash xalq timsoli yaqqol gavdalanadi.

Tarixiy obidalarimizning g'oyat aniqlik va murakkab geometrik hisob – kitoblar asosida qad ko'targani, undagi nafis bezaklar va naqshlarning o'zaro uyg'unlashuvi, ham go'zal, ham mahobatli, mustahkam va muhtasham barpo

etilgani hali xanuz kishilarni hayratga solib kelmoqda. Asrlar davomida tabiat sinovlariga bardosh berib kelayotgan, shaharlarimiz ko'rkiga chiroy qo'shib turgan ushbu tarixiy obidalarimizning dunyo miqyosidagi ahamiyatini dunyoning nufuzli tashkilotlaridan biri bo'lgan YUNESKO ro'yxatiga O'zbekiston hududidagi 4000 dan ziyod tarixiy obidalarining kiritilganligida yaqqol ko'rish mumkin.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon Prezidentimiz I. A. Karimov tashabbusi va bevosita rahnamoligi ostida mamlakatimiz obodonchiligi yo'lida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalgam oshirilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizdagi tarixiy obidalarining qayta tiklanishi va ta'mirlanishi, aziz bobolarimiz qabrlari joylashgan maqbaralar muqaddas qadamjolarga aylantirilishi, tarixiy obidalarimiz obodligi yo'lida olib borilgan say' - harakatlarni alohida ta'kidlab o'tmoq joiz. Jumlada, Shohi Zinda ansambli, Bibixonim Jome' masjidi, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Tillakori, Nodirdevonbegi va boshqa ko'plab madrasalar, 1997 – yilda Ichan qal'a, 2007 – yilda Hazrati Imom majmuasi qayta ta'mirlanib, o'zining muhtasham ko'riishiga ega bo'lishi, Buxoroning 2500 yillik to'yi munosabati bilan shahardagi tarixiy obidalarni qayta tiklash va ta'mirlash ishlarining olib borilishi, 2004 – yilda Samarqand tarixiy yodgorliklari YUNESKO ning „Butun jahon ahamiyatiga molik yodgorliklar,, ro'yxatiga kiritilishi va shunday shaharlarimiz, me'moriy yodgorliklarimizni obodonlashtirish yo'lidagi say' - harakatlarini aytadigan bo'lsak oxiriga yetib bo'lmaydi. Bu albatta quvonarli hol.

# **IV. Ilova**





**Sherdor madrasasi**



**Registon maydoni**



**Imom al Buxoriy majmuasi**



**Shohi Zinda majmuasi.**





**Bibixonim madrasasi**



**Imom al-Moturidiy majmuasi**



**Xo'ja Ahror Valiy majmuasi**





**Mahdumi A'zam maqbarasi va masjidi**



## **V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. B . I . Abdurasulov . ,, Odobnoma ,, Talqin nashriyoti Samarqand 2007 . 14 bet .
- 2.” Samarqand tarixi ,” Tarix va Arxeologiya instituti Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti 244 – bet Toshkent 1971 y .
- 3.“Samarqand – 2750 ” T . SHerinov , M . Jo`raqulov , M . Isomiddinov , E , Rtveladze , A . Malikov , A . Ataxoddayev , A . Berdimurodov G . Azamova , D . Ziyoyeva , Q . Rajabova , N . Ahmedov O`zbekiston NMIO` 2007 y .
4. “ Samarqand tarixi” Tarix va Arxeologiya instituti Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti 253 – bet Toshkent 1971 y
5. “Samarqand tarixi ,” Tarix va Arxeologiya institute Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti 299- bet Toshkent 1971 y .
6. ” O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi “ A . Muhammadjonov . Q . Usmonov . ,, O`zbekiston tarixi ,, 7- sinf darsligi 147 –bet . Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2005 y .
7. “Samarqand tarixi” Tarix va Arxeologiya instituti Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti 223 - 224 - betlar .

### **Internet saytlari.**

Internetning [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)

Internetning [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)

<http://tarixchi.zn.uz/tarixiy-obidalar>

<http://www.samdu.uz>